

HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA GENDER NAZARIYASINING ASOSIY MASALALARI

Rohilabonu G‘o‘chchiyeva,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

E-mail: generallinguistics2025@gmail.com

Annotatsiya. Xalq og‘zaki ijodining qadimiy namunalaridan biri hisoblangan maqol boshqa janrlardan o‘zining qisqa, lo‘nda, obrazli va chuqur mazmunga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Maqollar orqali har bir xalqning o‘ziga xos qadimiy va boy manaviyati namoyon bo‘ladi. Maqollar mavzu jihatidan nihoyatda boy va xilma-xil bo‘lib, mazmun jihatdan oz ma‘nosida yoki ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi mumkin. Maqollar uchun obyekt sifatida shaxslar, narsa-buyumlar, hayvonlar ham olinadi. Mazkur maqolada ingliz tilidagi antropotsentrik maqollarda gender stereotiplari lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, maqol, obraz, mazmun, ko‘chma ma’no, folklor, milliy paremiologiya, gender stereotiplari, antropotsentrik maqol, g‘arb madaniyati.

Tillarni qiyoslashdan avval ma‘lum bir terminning qiyoslanayotgan tillar uchun adyektivatligi, ya‘ni mosligi muhim hisoblanadi [8]. Maqolada gender terminining qo‘llanilishi terminologik adyektivatlik prinsipiga ko‘ra tadqiq etiladi. Har ikki tilda gender bir vaqtning o‘zida shaxsning ijtimoiy va madaniy shartlashgan erkaklik va ayollik xususiyatlarini o‘zlashtirish jarayoni va natijasini ko‘rsatuvchi tushuncha sifatida talqin etiladi.

Garchi gender ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan tan olingan bo‘lsa ham, uni farqlashda va tushunishda bir qator chalkashliklar ham yo‘q emas. Noaniqliklar tadqiqotning qaysi tilda yozilganiga ko‘ra ham yuzaga kelishi mumkin, shuningdek, chet tillarda yozilgan ishlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ham bunday qiyinchiliklarga duch kelish tabiiy.

U yoki bu atamadan foydalanishda muallifning shaxsiy qarashlari ham katta ahamiyatga ega. Biodeterministik yo‘nalish tarafdorlari [9] jinsning an‘anaviy holda qo‘llanilishi tarafdorlaridir. Ijtimoiy konstruktivizm tarafdorlari [11] esa “gender” (ijtimoiy jins) ni qo‘llashadi.

O‘zbek tilida ingliz tilidan farqli o‘laroq “jins” (pol) tushunchasi bilan muvofiqlashmaydi, shuning uchun tarjima jarayonida “jins” (pol) so‘zining qo‘llanilishi, fikrimizcha, afzalroqdir.

Gender terminini turli matnlarda qaysi ma’noda qo‘llanilganligiga e‘tibor berish zarur. O‘zbek tilida genderning qo‘llanilishi o‘ziga xosdir. Unda rus va nemis tillaridagi kabi “jins”ni ifodalash uchun alohida terminning (jins, pol, Geschlecht) mavjudligini hisobga olgan holda tadqiqotning umumiy yo‘nalishini gender termini bilan atab, keng ma’noda “ijtimoiy jins” tushunchasidan foydalanish mumkin.

Gender juda keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, "jins" bilan bog'liq bo'lgan ko'plab til hodisalarini tadqiq etishni taqozo etadi. Tahlillarimiz davomida genderning qo'llanilish xususiyatlarini o'rganishga harakat qilamiz.

Zamonaviy ingliz, o'zbek va rus tillarida gender identity (гендерная идентичность, gender o'xshashlik), gender harassment (гендерное домогательство, jinsiy tajovuz), gender roles (гендерные роли, gender rollar), gender discrimination (гендерная дискриминация, gender kamsitish), gender relations (гендерные отношения, gender munosabatlar), gender inequality (гендерное неравенство, gender tengsizlik) birikmalari jamiyat tomonidan ijobiy qabul qilinishi natijasida faol qo'llanilib kelinmoqda [1]. Bu birikmalarning tezlik bilan kirib kelishi jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlardan darak beradi.

Biroq genderning asosan "jins" ma'nosida qo'llanilishi umumiy holda ommalashgan.

However, regardless of their background, gender and characteristics, I notice that all of my close friends have one characteristic in common – they all have a sense of humor (IELTS\Students' essay).

Gender so'zining qaysi ma'noda qo'llanilganini aniqlash jarayonida ham, shuningdek, tarjima jarayonida ham biroz qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Masalan, quyidagi gapda jins so'zi bir vaqtning o'zida gender va pol so'zlari bilan ifodalanayotganini kuzatishimiz mumkin [10].

Gender so'zini "ijtimoiy jins" va "biologik jins (rod)" ma'nolarda qo'llanilishini leksikografik manbalarda ko'rib chiqish jarayonida shu narsa aniqlandiki, lug'atlarning aksariyatida genderning faqat "jins" va "kategoriya (rod)" ma'nolari anglashiladi. Masalan: Genderning "jins" ma'nosi qadimgi ingliz tili lug'atida (OED) 1300 yilga borib taqaladi va standart ma'no sifatida Samuel Johnson (1755) va Noah Webster (1828) larning lug'atlariga kiritilgan. Shuningdek, OED "hozirda faqat jocular – hazil" ma'nosida (1998), Merriam-Webster "obsolete" – eskirgan yoki "colloquial" – og'zaki qo'llaniladi izohlari bilan keltiradi [14].

Lug'atlarda genderning an'anaviy, ya'ni "jins" va "kategoriya" ma'nolarining berilishini genderning "ijtimoiy jins" ma'nosining til sohasiga boshqa fanlarga nisbatan kech kirib kelganligi bilan tushuntirish mumkin.

Gender ilm-fanga o'zining biologik jins ma'nosini tark etmagan holda shaxsning ijtimoiy-madaniy maqomini belgilovchi muhim omil sifatida o'tgan asrning 80-yillarida kirib keldi [12]. Genderning tilshunoslik sohasiga ijtimoiy fanlardan kirib kelganligi to'g'risidagi tasdiqni sotsiologik lug'atlarda uning "ijtimoiy-madaniy jins" ko'rinishidagi izohining mavjudligi bilan tasdiqlash mumkin. Demak, gender ijtimoiy hodisa va ijtimoiy kategoriya sifatida lingvistik nuqtai nazardan tadqiq etiladi.

Ijtimoiy fanlarning barcha sohalarida bilimning antoposentrikligiga va shaxsning o'ziga xos jihatlariga ortgan qiziqish til va jinsning o'zaro tarqoq bog'lanishlarini chambarchas birlashtiradi deyish mumkin.

Tilshunoslik fanining obyekti til bo'lib, u har xil davrlarda, ya'ni tilning xususiyati, vazifalari turli nuqtai nazardan o'rganib kelingan [13]. Oxirgi o'n yillikda

bilishning yangi metodologik yo'nalishi, ya'ni kognitiv yondashuv asosida olib borilayotgan tadqiqotlarning keng tus olishi natijasida kognitiv tilshunoslik – til haqidagi fanning eng jadal rivojlanib kelayotgan yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Kognitiv tilshunoslikning paydo bo'lishi 1970 yillarning II yarmida mavjud bo'lgan amerikalik olimlar ishlari bilan bog'liq (Lakoff; Paivio; Taylor va boshq.). Ushbu sohada rus tilshunos olimlari ham muvaffaqiyatli ish olib borishmoqda va uning ayrim nazariyalarini ishlab chiqishda katta hissa qo'shib kelmoqdalar (E. Kubryakova; O. Kolosova; A. Baranov; R. Frumkina va boshq.)

Til va kognitsiyaning o'zaro bog'liqligiga bag'ishlangan talaygina ishlar o'zbek tilshunosligida ham yangi soha sifatida o'z o'rnini topib kelmoqda (D.U. Ashurova, Sh. Safarov, O'. Yusupov). Zero, kognitiv tilshunoslik o'zini fan sifatida oqladi.

Ma'lumki, kognitiv tilshunoslik asosan semantika bilan shug'ullanadi, shuning uchun bo'lsa kerak uni "izchil semantika" sifatida ham ta'riflashadi. Til birliklari dunyoda mavjud bo'lgan predmetlar va sodir bo'ladigan harakatlarni ifodalashga xizmat qilar ekan, semantika til birliklarining real yoki tasavvurdagi olam o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni bog'lab turadi. Bu munosabatlarni esa tilshunoslik semantikasi o'rganadi. Semantika tilshunoslikning bir bo'limi sifatida shaxsning so'z va grammatik qoidalar yordamida qanday qilib har xil ma'lumotni yetkazib bera olishi mumkin degan savolga javob bersa [7], kognitiv tilshunoslikning diqqat markazida nafaqat "til formasi va substansiyasi birligi", balki undanda muhimroq "til va inson birligi" turadi [6], uning strukturaviy tilshunoslikdan farqi ham ana shunda. Shunga ko'ra, kognitiv tilshunoslik kommunikativ pragmatika va diskurs nazariyasi bilan chambarchas bog'liq.

Mazkur ishda tilning frazeologik tizimida bilish nazariyasi orqali ayol va erkak tushunchalarining o'ziga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini aniqlar ekanmiz, gender tilshunosligining lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv tilshunoslik bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlash mumkin.

Ayollar hamda erkaklar so'zlashuvdagi tafovut sezilganligiga ko'p vaqt bo'lgan bo'lsada bu sohada tadqiqotlar hali ham davom etmoqda. Bilamizki genderlar lingvistikasi orasidagi farq nafaqat ovoz tembrlarida balki ular so'zlashuvda ko'p foydalanadigan so'zlarda ham seziladi. Gender so'zi ilmiy atama sifatida foydalanilib sotsiologiya, psixologiya, lingvistika va boshqa sohalarda erkak va ayollarning jamiyatdagi o'rni, farqini tasvirlashda ishlatiladi. Jins so'zi esa ko'p hollarda biologik va fiziologik sohada qo'llaniladi. Gender lingvistikasida erkak hamda ayollarning tilidagi o'zaro bog'liq hamda bog'liq bo'lmagan turli xususiyatlar o'rganiladi [5]. Gender lingvistikasi (lingvistik genderologiya) fanlararo gender tadqiqotlarining bir qismi sifatida genderni (ijtimoiy-madaniy jins, an'anaviy konstruksiya sifatida tushuniladigan, biologik jinsdan nisbatan avtonom) o'rganuvchi lingvistik konseptual foydalanadigan ilmiy yo'nalishdir.

Erkak va ayol tillaridagi farqlar ijtimoiy-lingvistik tajribalar, so'rovnomalar, so'rovlar usullarini qo'llash orqali izlanadi. Xususan, R. Lakoffning g'oyalarini rivojlantirish, gender tarkibida (erkak + erkak, ayol + ayol, erkak + ayol) turli xil

juftliklarda muloqot harakatlarini ko'rib chiqadi. P. Fishman shu nuqtai nazardan er-xotin suhbatlarining eksperimental yozuvlarini o'rganib chiqdi (1978) [4]

Bu ishlarning barchasi R. Lacoff gipotezani eksperimental tasdiqlashga qaratilgan edi. Ko'pgina eksperimentlar uning o'lchovlarining faqat yarmi tog'ri ekanligini aniqladi. Shuning uchun, keyingi ijtimoiy-lingvistik tadqiqotlar to'liqlini faqat ayollar guruhlari ichida muloqot qilish usullarini o'rganishga qaratilgan edi.

A. Kirilina gender tilshunosligining sotsiolingvistikadan farqini quyidagicha izohlaydi: "Gender tilshunosligining oldida turgan asosiy maqsad tilda qaysi jins egasi hokimlik qilishi emas, balki uni (hokimlikni) tasvirllovchi vositalarning tilda mavjudligi, genderning qanday pragmatik va kommunikativ kontekstda hosil bo'lishi va ushbu jarayonga ekstra va intralingvistik omillarning ta'sirini o'rganishdir" [3].

L. Push ham tilshunoslik asosan lingvistik ifodalarning inson uchun subyektiv va obyektiv qanday ahamiyatga ega ekanligini emas, balki ushbu ifodalarning ma'nosi bilan shug'ullanishini e'tirof etadi. "Bugungi tilshunoslik tilni tanqid qilmaydi, balki uni tasvirlaydi", – deb yozadi L. Push [2].

O.A. Voroninaning fikriga ko'ra, gender tadqiqotlari metodologiyasining asosi – nafaqat ayol va erkaklar maqomi, rollari va boshqa xususiyatlari o'rtasidagi farqlarni tasvirlash, balki gender rollari va munosabatlari natijalarini, ya'ni jamiyatda yuzaga kelgan "hokimlikni tahlil etish hamdir" [5]. O.A. Voroninaning ushbu fikrlarini tilshunoslik sohasiga tatbiq eta olmaymiz, chunki tilshunoslik tilda qaysi jins hukmronlik qilishini emas, balki gender nomutanosiblikni ifodalovchi til vositalarini tadqiq etish bilan shug'ullanadi.

Tilshunoslikda gender tadqiqotlari metodologiyasini A.V. Kirilina quyidagi umumilmiy prinsiplar bo'yicha ajratadi. Birinchidan, gender fanlararo kategoriya bo'lib, har qaysi fan gender yondashuvi asosida tadqiq etilishi mumkin. Ikkinchidan, gender madaniyat va jamiyat rivojining mahsuli hisoblanadi. U institutsionlashgan va rituallashgan. Uchinchidan, gender o'zgaruvchan va vaqtga ko'ra dinamikdir [10].

O'zbek tilida feministik nazariyaning mavzularidan bo'lmish lisoniy androtsentrizm g'oyasi lug'atlar yordamida aniqlandi va quyidagi xulosalarni berdi:

1. O'zbek tili leksikografik manbalarining tilning feministik tanqidi nuqtai nazaridan tahlili odam leksemasi ostida ko'proq erkak tushunchasi anglashilishi, xotin esa bundan mustasno ekanligini ko'rsatdi. O'zbek tilida ayolning har bir maqomi alohida so'z bilan nomlanmagan. Bizningcha, uning "turmush o'rtoq" kabi ijtimoiy maqomini – xotin, "jamiyat a'zosi" sifatidagi ijtimoiy maqomini esa – ayol bilan aniq chegaralash kerak. Agar bu o'rinda erkak kishini nazarda tutgan holda er leksemasidan foydalansak, salbiy ma'noni keltirib chiqarishi aniq.

2. Lug'atlarda yigit va er leksemalari "jasur odam, haqiqiy er kishi, mard" kabi ijobiy sifatlarni anglatgan holda qo'llaniladi, lekin xotin va qiz bunday xususiyatlarga ega emas.

3. Bola tushunchasi ostida asosan o'g'il nazarda tutiladi.

4. Qiz balog'at yoshiga yetganda, qizligicha qolishi, lekin o'g'il balog'atga yetganda, alohida yigit leksemasiga aylanishi o'zbek tilida androsentrizmning mavjud ekanligini tasdiqlaydi.

5. Ingliz tilida har xil kasblarni ifodalovchi birliklarda erkaklik olami ustun turadi, bu esa azaldan erkak uchun kasb, ish, ayol uchun uy muhim va majburiy ekanligidan darak beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har ikki tilda olamning lisoniy tasviri asosan "erkaklik" nuqtai nazaridan tasvirlanadi.

Ayol va erkaklarga xos maxsus murojaat undalmasining yo'qligi ham, gender muammosining o'zbek tilshunosligida hali yetarlicha tadqiq etilmaganligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar:

1. Кирилина А.В. Гендерные исследования в отечественной лингвистике: проблемы, связанные с бурным развитием // Гендер: язык, культура, коммуникация. – М., 2002.

2. Носирова М. О. Аксиологический аспект социальных ценностей в русской и узбекской пословичной картине мира //Актуальные вопросы теории и практики преподавания русского языка как иностранного: вызовы и перспективы развития в открытом образовании. – 2021. – С. 316-322.

3. Воронина О.А. Теоретико-методологические основы гендерных исследований // Теория и методология гендерных исследований. Курс лекций. . – М., 2001. – С. 105-116

4. Менглиев Б. "Одам" лексемаси ва сатҳлараро муносабатлар // Тилнинг аксиологик механизмлари ва матн эмоционаллиги. Маърузалар баёни тўплами. – Тошкент, 2001. – Б. 25-28.

5. Носирова М. О. Professional status of social teacher at school //Общественные и гуманитарные науки. – 2020. – С. 363-366.

6. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати II/ араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар. – Т.: Университет, 2003. – 335 б.

7. Носирова М. О., Холматова Ш. С. Современные методы преподавания фонетики в курсе «Введение в языкознание» в группах с русским языком обучения //Кўп маъэниётле арауықта тел ьам эъэбиёт: хэзерге торошо ьам үсеш перспективалары. – 2020. – С. 332-340.

8. Маъруфов Т. Ўзбек тилининг изохли луғати. – Москва.: «Рус. язык», 1981, 520 б.

9. Мирзаев Т., Мусокулов А. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 508 б.

10. Nosirova M. O. Assessment of social status and prestige of a teacher's profession //Архивариус. – 2020. – №. 2 (47). – С. 84-86.

11. Иминов А. Оқ кийинган аёл. – Тошкент: Ўзб. Миллий кутубхонаси, 2010. – 649 б.

12. Nosirova M. O. Socio-linguistic representation of the concept of "teacher"
//Кўп маънаётли арауықта тел Һәм әзәбиәт: хәзәрге торошо Һәм үҗеш
перспективалары. – 2020. – С. 327-332.
13. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва
фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991. – 274 б.
14. Oxford Concise Dictionary of Proverbs. Oxford University Press, 2003.
– 364p.